

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA
ASOSLARI**
(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT – 2014

UO‘K: 159.9:37 (075)

KBK 74.100

P-79

P-79

Psixologiya va pedagogika asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 116 bet.

ISBN 978–9943–4267–9–5

O‘quv qo‘llanma barcha o‘rta-maxsus kasb-hunar kollejlarning o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun mol‘jallangan bo‘lib, unda psixologiya, pedagogika fanlarining blok hamda ARM (kutubxonashunoslik) yo‘nalishi bo‘yicha psixologiya, pedagogika faniga oid nazariy hamda amaliy bilim asoslari dars jarayonida foydalanish yuzasidan ko‘rsatmalar berilgan.

O‘quv qo‘llanmada psixologiya va pedagogika fanining predmeti, taraqqiyot yo‘li, uning metodlari, ta’lim-tarbiya prinsiplari, psixologiya fanining o‘ziga xosliklar: shaxs, uning rivojlanishi, individual xususiyatlar, temperament xususiyatlari hamda milliy qadriyatlar. ARM (kutubxonashunoslik) yo‘nalishida foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

UO‘K: 159.9:37 (075)

KBK 74.100

Mualliflar:

**Sodir Isamitdinov, Dilfuza Madg‘ofurova, Dilorom Abdullayeva,
Hilola Mardonova.**

Taqrizchilar:

S.Obidjonova, R.Abdugodirov.

Mas’ul muharrir:

O‘Yuldashev.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma Qo‘qon DPI ning o‘quv-uslubiy kegasida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978–9943–4267–9–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

KIRISH

Soʻnggi yillarda barcha sohalar kabi taʼlim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Pedagogika va psixologiya fani ham blok fanlar qatori tarmoqlarga boʻlinib chuqur oʻrganib borilmoqda. Mazkur oʻquv-uslubiy qoʻllanma ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir. Uning mazmunini pedagogika va psixologiya fanining predmeti va taraqqiyot yoʻli ARM xodimining ish faoliyatida pedagogika va psixologiyaning ahamiyati, manbalari, metodlari, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimi, maktabdan tashqari tarbiya jarayonida ARM muassasalarining oʻrni, shaxs va uning tarkib topishi, shaxsning bilish jarayoni, idrok haqida tushuncha, xotira, nutq, tafakkur, temperament, emotsional holatlar va yuksak tuygʻular, tarbiya metodlari va ularning ARM muassasalarida qoʻllanilishi, jamoa tushunchalari, ARM muassasalarida shaxsga mehnat, axloqiy va estetik tarbiya berishni yoʻlga qoʻyish masalalari, didaktika, taʼlim prinsiplari, metodlari, ularni ARM da qoʻllanilishi, milliy qadriyatlar va uzluksiz taʼlim, ARM xodimining oʻz pedagogik faoliyatida oʻquvchilarning yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, ARM xodimining pedagogik odobi, pedagogik mahorati va uni egallash yoʻllari, pedagogik texnologiya elementlari asoslarida yaratilib ushbu qoʻllanma pedagogik kasb-hunar kollejlarning kutubxona-shunosligida hamda ARM xodimlari uchun moʻljallangan.

Oʻquv-uslubiy qoʻllanmada ayrim juzʼiy kamchiliklar boʻlishi mumkin. Sizdan, mazkur oʻquv-uslubiy qoʻllanma boʻyicha fikr mulohazalaringizni kutib qolamiz.

Pedagogika va psixologiya fanini predmedi va taraqqiyot yo‘li ARM xodimining ish faoliyatida Pedagogika va psixologiyaning ahamiyati Pedagogika va psixologiyaning manbalari va metodlari

1. Pedagogika va psixologiya fanini predmeti va taraqqiyoti yo‘li.
2. ARM xodimining ish faoliyati Pedagogika va psixologiyaning ahamiyati.
3. Pedagogika va psixologiyaning manbalari va metodlari.
Tayanch iboralarning klasster usulidagi tahlili

1. Pedagogik psixologiya:

- ta’lim-tarbiyaning pedagogik, psixologik xususiyatlarini o‘rganadi;
- pedagogik psixologiyaning qonuniyatlarini o‘rganadi;
- ta’lim-tarbiya ta’siri bilan o‘quvchilar psixologiyasidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi;
- bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘rganadi;
- ta’lim-tarbiyaning shxsga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganadi.

2. Ta’lim psixologiyasi:

- o‘quvchilarni bilish faoliyati boshqaradi;
- aqliy taraqqiyotni shakllantiradi;
- o‘quv faoliyati matemlaridir;
- ta’lim jarayoniga ta’sir etuvchi omillar;
- ijodiy tafakkurni shakllantiradi.

3. Tarbiya psixologiyasi:

- shaxsni tarbiyalashning psixologik asoslarini o‘rganadi;
- inson- shaxsni shakllantirish kabi muammolarni o‘rganadi;
- tarbiyaning psixologik mexanizmlarini o‘rganadi;
- tarbiyasi og‘ir, qiyin bolalar muammolarini o‘rganadi;
- shaxs tarbiyasining psixologik qonuniyatlari, prinsiplarini o‘rganadi.

4. O‘qituvchi psixologiyasi:

- o‘qituvchining psixologiyasi va uning o‘ziga xosligini o‘rganadi;
- o‘qituvchining jamiyatdagi tutgan o‘rni;
- o‘qituvchiga qo‘yiladigan pedagogik- psixologik-fizologik talablar majmuiy;
- pedagogik mahorat va pedagogik faktning ko‘rsata olishi jarayonidir.

Respublikamiz o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan davridan boshlab O‘zbekiston psixologiya fani ham keng tarmoqlarda rivojlana

boshladi. Psixologiya fanining turli sohalarida olimlarimiz barakali xizmat qila boshladilar. Shuningdek, pedagogik psixologiya faniga ham boshqa psixologiya fanlari kabi e'tibor kuchayib bormoqda. Pedagogik psixologiya fani qanday fan? Pedagogik psixologiya pedagogika va psixologiya fani orasidagi, ya'ni uni tutashgan joyidan o'rin olgan fandır. Pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini, maktabda bilimlarni, kun va malakalarni egallash, bu jarayonlarda sodir bo'ladigangan individual psixologik tafovutlarni, o'quvchilarda faol, ijodiy va mustaqil tafakkurini tarkib topishini, ta'lim-tarbiya ta'siri bilan o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigangan o'zgarishlarni o'rganadi. Shuningdek, o'quv materiallarini o'quvchilarga mos kelishi, ta'lim usullarini psixologik jihatdan samaradorligi, darslik va o'quv dasturlari, ko'rgazma materiallariga qo'yilgan talablar, o'qituvchi va uning pedagogik faoliyat usullarini, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'rganish ham pedagogik psixologiyaning muammolaridir.

Demak, pedagogik psixologiya fani ta'lim va tarbiyaning shaxsiga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizimlarini o'rganadi. Uning diqqat markazida bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchi shaxsni har tomonlama shakllantirish jarayoni turadi. Turli ijtimoiy tajribalarning qonuniyatlarini va u individning tajribasiga aylanishi jarayonini yoritib berishdan iboratdir. Bolani shaxs sifatida shakllantirish, tarbiyalash, tarbiya vositalari, usullari pedagogika faniga taalluqli bo'lsa, bola psixikasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va rivojlantirish xususiyatlari, qonuniyatlari psixologiya faniga taalluqlidir. Bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini bilmay turib, ularni qalbiga yo'l topish, uni bilimli qilish, komil inson qilib tarbiyalash juda qiyin. Ta'lim va tarbiya bola taraqqiyotida birga amal qiladi, shuningdek, unga ta'lim-tarbiya beruvchi shaxs muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining qanday tashkil qilinishi ham shularga bog'liq Pedagogik psixologiya bolani ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganar ekan, uning o'rganish obyekti kichik maktab, o'smir va o'spirinlik yoshi bo'lib, pedagog ta'sirida ta'lim va tarbiya jarayoni maqsadga muvofiq ravishda uyushtiriladi. Pedagogik psixologiya uch qismdan iboratdir:

1. Ta'lim psixologiyasi.

2. Tarbiya psixologiyasi.

3 O'qituvchi psixologiyasi.

Ta'lim psixologiyasi – o'rgatish va o'rganish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, oddiy taraqqiyotini shakllantirish, o'quv faoliyati motivlari, ta'lim jarayoniga ta'sir eshituvchi omillar, ko'nikma, bilim va

malakalarini shakllantirish, ilmiy tushunchalar va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Tarbiya psixologiyasi – tarbiyaning shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilganligining psixologik muammolari, faoliyat odamni shaxs sifatida shakllantirishi muammolari, tarbiyaning psixologik mexanizimlari, ijtimoiy-foydali faoliyat tarbiyaning muhim sharti va vositasi ekanligi, umuminsoniy va milliy boyliklar hamda ularni shaxsni shakllantirishdagi roli, tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash masalalarini o'rganadi. O'qituvchi psixologiyasi o'qituvchining jamiyatda tutgan o'rni, o'qituvchiga xos kasbiy sifatlar, unga qo'zilgan talablar, pedagogik qobiliyat, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlar, pedagogik mahorat va pedagogik taktining psixologik asoslari, pedagog va jamoa, o'qituvchilar bilan munosabat kabi masalarni o'rganishdan iboratdir. Pedagogik psixologiya o'z izlanishlarida taraqqiyotning umumiy qonuniyatlariga (qarama-qarshilik integratsiya, plastiklik) va umumiy psixologiya va bolalar psixologiyasida psixik jarayonlar, holatlar, psixik xususiyatlarga xos bo'lgan tajriba natijalariga asoslanadi. Pedagogik psixologiya mustaqil fan sifatida ham nazariy, ham amaliy vazifalarni bajaradi.

Pedagogik psixologiyaning vazifalari:

Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Pedagogik - psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta. Bu asosiy vazifa sifatida ilk bor qonuniy asoslarga ega bo'lmoqda va pedagogik psixologiya fani oldiga muhim nazariy vazifalarni hal qilish qo'yilmoqda:

1) pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, faollashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;

2) ta'lim - tarbiya jarayonida turli yoshdagi bolalarning aql-idrokiga, irodasiga, uni shaxs sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

3) o'quvchilar shaxsni tarkib topishi jarayonini, bu jarayonning umumiy qonuniyatlarini va individual farqlarni, turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish;

4) ta'lim va tarbiya jarayoni bir-biriga bog'liqdir, bu jarayonda aqliy qobiliyatlarni, axloqiy sifatlarni, shaxsni hissiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning maksimal rivojlanishi shart-sharoitlarini aniqlash;

5) mustaqil bilim olish, materialni chuqur yoki yetkazishning psixologik masalalarini ishlab chiqish;

6) bilish faoliyatini o'zaro tashkil qila bilish shart-sharoitlarini aniqlash;

7) o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarni aniqlash;

8) o'qituvchi shaxsni va o'qituvchi shaxsini xususiyatlarini, milliy o'qituvchining sifatlarini aniqlash;

9) pedagogik bilimlar, ko'nikma va malaka, qobiliyatlarning tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlarini aniqlash;

10) o'z-o'zini tarbiyalash, milliy g'urur va vatanparvarlik jarayoni uning psixologik muammolarini nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir;

11) shuningdek jahon tajribalari bilan birga, milliy xususiyatlarimiz, undagi eng ilg'or tomonlar, muhimi, pedagogik tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar, talabalar bilan imkoni boricha ko'proq muloqotda bo'lish, o'quvchi shaxsining barcha xususiyatlarini hisobga olib, bilim va tarbiya berish, ya'ni yagona pedagogik jarayonni ta'minlash, masalalari ham nazarda tutiladi;

12) pedagogik psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri o'zlashtirishning sifat darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o'zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta'lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, yosh o'qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi, ota-onalar, tarbiyachi va o'qituvchilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va tele ko'rsatuvlarda, jurnallarda, ma'ruza va maxsus ko'rsatuvlar orqali chiqish, mahalla, maktab va ota - onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi.

Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyr psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana

shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz.

Pedagogik psixologiyaning metodlari

Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiy psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi.

Qaysi metoddan foydalanishdan qa'ti nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'lim-tarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir. Ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim.

Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir.

1. O'rganish lozim bo'lgan har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir-biriga bog'lab tekshirish lozim.

Har bir o'rganiladigan psixik hodisalarni nevrofiziologik asoslardan yoki xotirani diqqatdan, idrokni tafakkurdan ajratib o'rganish yaramaydi.

2. Tekshirilayotgan psixik hodisalarni rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib uni har tomonlama o'rganish mumkin emas. Shuningdek, turli yoshsagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmasdan turib o'rganilayotgan yosh davrning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va tavsifnoma berish mumkin emas.

Tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy nigizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida psixik hodisalarning miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlarga o'tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini kuzatib borish lozim. Masalan: o'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib «ko'rib, bilim olish, tajribalar to'plash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini, ya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olsa bo'ladi.

Pedagogik psixologiya o'rganishi lozim bo'lgan jarayonini, obyektning tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash va tahlil qilishdan boshlashi lozim. Chunki bu psixik hayot qonuniyatlarini ochish va tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Ta'lim- tarbiya jarayonida qaysi psixik hodisani o'rgansak ham, bola o'zini kuzatilayotganini, tekshirilayotganini sezmasligi kerak. Aks xolda bola o'zini noqulay sezadi, o'z-o'zini bilimdon qilib ko'rsatishga yoki qo'rqib, uyalib, tortinib o'zini erkin tuta olmaydi. Bu esa kuzatish, tajriba natijalarini buzilishiga olib keladi.

8. O'quvchilarni jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish lozim, ya'ni ayrim o'quvchini o'rganish jamoa xususiyatlarini o'rganish bilan birga olib borilishi kerak.

9. Kuzatishlardan yaxshi natija olish uchun, shaxsning xislatlari turli xilda namoyon bo'lishini nazarda tutib, ularni doimiy ravishda, reja asosida kuzatish lozim.

Pedagogik psixologiyada ham umumiy psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlardan foydalaniladi.

Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodi kirsa, yordamchi metodlarga suhbat, faoliyat mahsulini o'rgatish, ayniqsa, test va boshqa metodlar kiradi.

Kuzatish metodi obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni rejali, davomli, tizimli idrok qilish, hissiy bilishning dalillar to'plamiga, voqelik haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan faol shakli, psixologiyaning ilmiy tekshirish usullaridan biridir.

Bu metod orqali psixik hodisalar tabiiy sharoitda kishining turli-tuman, faoliyatlari davomida o'rganiladi. Bunda tadqiqotchi mutaxassis o'quvchilarning xatti-harakatlari, xulq-atvorini psixikaning tashqi ko'rinishini tizimli ravishda kuzatadi va shu asosida o'quvchining psixik jarayonlari, holati va xususiyatlari haqida xulosa qiladi.

Kuzatish jarayonini muvaffaqiyatli uyushtirish uni maqsadga muvofiq reja asosida tashkil qilishga bog'liq.

Bunda:

- a) kuzatishdan ko'zlagan maqsad va vazifalar aniqlab olinishi lozim;
- b) kuzatishni qachon, qayerda o'tkazish joyi belgilanishi;
- d) tadqiqot o'tkazishi vaqti belgilanishi va uni muntazam kuzatib borish;
- e) unda qanday faoliyatdan foydalanishni aniq rejalashtirish;
- f) kuzatishni yakka tartibdami, guruhlar o'zini jamoa bilan o'tkazilishini aniqlanishi;

g) kuzatishdan olingan natijalar qanday bo'lsa, uni shundayligicha tahlil qilish va tegishli obyektiv xulosalar chiqarilishi lozim. Kuzatishni ilmiy xarakterga ega bo'lishi ahamiyatlidir.

Ilmiy kuzatish kundalik kuzatishlardan farq qiladi. Chunki kundalik kuzatishlar ko'p hollarda tasodifiy, tartibsiz, rejasiz harakatiga ega bo'ladigan, ilmiy kuzatishda tadqiqotchi kuzatadigan obyektни nihoyatda diqqat-e'tibor bilan aniq o'rganishi, palapartishlikka yo'l qo'zmasligi lozim. Kuzatish jarayonida o'quvchining xatti- harakatini ham to'g'ri talkin qilishi kerak. Ba'zi hollarda o'quvchi aftidan garchi diqqat bilan tinglagandek ko'rinsa ham, aslida u o'qituvchi tomonidan tushintiriladigan narsa haqida emas, balki tamomila boshqa narsalar haqida o'ylab o'tirgan bo'ladi. Kuzatish metodi bilan psixik va hayotning sezgi a'zolarisiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi. Kuzatish orqali o'quvchini mimikasi, nutqi, xatti-harakatlari va faoliyatini kuzatish mumkin.

Kuzatish metodi o'z-o'zini kuzatish va sirdan kuzatishga bo'linadi. Pedagogik psixologiyada ko'proq sirdan kuzatish metodidan foydalaniladi. Sirdan kuzatish hamisha oldindan belgilangan qat'iy maxsus reja asosida olib boriladi. O'qituvchi va tarbiyachilar nimani kuzatishi kerakligini va ta'lim-tarbiya buning uchun asosiy material berishi. mumkin ekanligini aniq bilganlaridagina bu metod vositasida yaxshigina natijalarga erishish mumkin. Bu tekshirish metodini asosiy xususiyati shundaki, bunda biror psixologik hodisa qanday yuz berayotgan bo'lsa, shu holicha olib tekshiriladi. Bunda tekshirilishi lozim bo'lgan psixik jarayonning yuz berishini kutishga to'g'ri keladi yoki boshqa tekshirish usullaridan ham foydalanish mumkin.

Darsda va boshqa faoliyat jarayonlarida o'quvchilarni muntazam kuzatish yo'li bilan o'qituvchi o'z - o'ziga va atrofdagi kishilarga bo'lgan munosabatlarini bilib oladi va uning shaxsiy fazilatlari haqida xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Eksperement metodi psixologiyada eng ko'p ishlatiladigan metodlardan biridir. Bu metod eksperement o'tkazuvchi kishining maqsadi uchun kerak bo'lgan biror psixik jarayonni tekshiriluvchi psixikasiga ta'sir qilishi va faoliyati sharoitlarini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Eksperement metodi 3 turdan iborat:

- a) laboratoriya eksperement;
- b) tabiiy eksperement;
- d) pedagogik psixologik eksperement;



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/62> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/62> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/62>